



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 14-mart

VII-8-43-5-78-K/25

Zarafshon shahar

Zarafshon shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida

Shahar prokuraturasi tomonidan shaharda korrupsiyaning oldini olish va bunga imkon berayotgan omillarni aniqlab, bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilgan. Jumladan, korrupsion jinoyatlarning oldini olish bo'yicha 50 ta targ'ibot tadbir o'tkazilgan. Sodir etilgan jinoyatlar 51 marotaba bevosita mehnat jamoalarida muhokama qilingan. Shuningdek, korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi 33 ta g'ayriqonuniy hujjat bekor qilingan, 131 tasi qonun talablariga muvofiqlashtirilgan. Qurilish dasturlari ijrosini nazorat qilish orqali 100 mln so'mdan ziyod qo'shib yozish va sifatsiz ish bajarish holatlari barvaqt aniqlanib, bartaraf etilgan. Korrupsiya avj olgan tarmoq va sohalarni aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda anonim so'rovnomalar o'tkazish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kelib tushgan murojaatlar tahlillaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Shaharda 2024-yil davomida 59 (2025-yil 2 oyida 2) nafar shaxs tomonidan 47 (2) ta korrupsiyaga oid jinoyat, 3 ta korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik qayd etilgan. Korrupsiyaga oid jinoyatlarning salmoqli qismini firibgarlik (40) (2), pora berish (1) (0), o'zlashtirish yo'li bilan talon-toraj qilish (6) (0) jinoyatlari tashkil etgan. Aniqlangan 6,9 mlrd so'm zarardan 5,1 mlrd so'm undirilishi ta'minlangan. Budget nazorati bo'yicha mablag'lar sarflangunga qadar qonunbuzilishlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar prokurori Sh. Shernazarovning Zarafshon shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha korxona va tashkilotlar rahbarlariga:

korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, profilaktika ishlarini samarali olib borish;

davlat fuqarolik xizmatchilarining axloqiy qoidalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari bilan ochiq va shaffof hamkorlikni rivojlantirish;

davlat xizmatchilarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha doimiy monitoring o'tkazish va tegishli deklaratsiyalarni yangilab borish tavsiya etilsin.

3. Shahar prokuraturasi (Sh. Shernazarov), shahar ichki ishlar bo'limi (S. Latipov)ga:

korrupsiyaga nisbatan muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan ko'rgazmali roliklar, tashkilot binosining kirish qismiga bannerlar joylashtirish;

korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish maqsadida yoshlar orasida muntazam tushuntirish va targ'ibot tadbirlarini turli yo'nalishda tanlovlar tashkil qilish;

har yarim yil yakuni bilan qonunchilikdagi bo'shliqlar yoki korruptsiyaga sabab bo'luvchi omillar to'g'risida shahar Kengashiga asoslantirilgan takliflar taqdim etish;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan tashkilotning quyi tizimlarida monitoring o'tkazish;

korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha muntazam ravishda tadbirlar uyushtirish, korruptsiya holatlarining oldini olish uchun barcha kuchlarni safarbar etish hamda bunday holatlarga yo'l qo'yilganda jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida qat'iy ogohlantirib borish;

korruptsiya holatlari yuzasidan kelib tushgan murojaatlar bo'yicha tezkor va xolis tekshiruvlar o'tkazish;

ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi yo'nalishida joriy yil davomida tekshirishlar o'tkazib borish, aniqlangan qonunbuzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish, taqdimnoma kiritish, noqonuniy qarorlarni bekor qilish va qonunga muvofiqlashtirish haqida protestlar kiritib borish hamda taqdimnomalarga muvofiq, mas'ullarga nisbatan intizomiy hamda ma'muriy javobgarlik choralari kuchaytirish;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari hamda shaxsiy huquq va erkinliklarini to'la amalga oshirilishi vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi axborot xizmati (G.Jabborova), "Oltin vodi" gazetasi tahririyati (G.Bobomurodova)ga:

korruptsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida doimiy yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o'rinbosarlari A. Shoxmirzayev, X. Oripov, S. Uvaytov, L. Tursunova va xalq deputatlari shahar Kengashining Korruptsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi H. Ernafasov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH